

Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th April, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

KEYT SHOPEN IJODI XIX ASR ADABIY MUHITIDAGI G'OYAVIY

MAQSADLARI

Ibodullayeva Zilola

O'zbekiston Davlat jahon tillari universiteti

Annotatsiya

Maqolada Keyt Shopen ijodi XIX asr adabiy an'analar kontekstida masalasiga muallifning bazi o'zbek tiliga tarjima qilingan hikoyalari tahlil qilish orqali muxtasar yehim va xulosalar topildi. Uning jamiyatdagi gender tenglik va feminism masalalariga oid o'z shaxsiy pozitsiyasi hikoyalardagi obrazlar misolida yana bir karra o'z isbotini topdi

Kalit so'zlar: Keyt Shopin, feminism, uyg'onish davri adabiyoti, hikoyalar, O'kinch.

KIRISH

Amerikalik yozuvchi Keyt Shopin 1850-yil tavallud topgan Ketrin O'Flaerti 8-fevral – 1904-yil 22-avgust, o'zining qisqa hikoyalari va romanlarida urushdan oldingi va keyingi janubiy hayotni o'rgangan. Bugungi kunda u ilk feministik adabiyotning kashshofi hisoblanadi. U Shopinning hayoti davomida juda ziddiyatli bo'lgan ayolning o'zini o'zi his qilish uchun kurashi tasvirlangan "Uyg'onish" romani bilan mashhur.

Buyuk Amerikalik yozuvchi va feministik g'oyalara targ'ibotchisi Keyt Shopin 1850 yilda Missouri shtatining Sent-Luis shahrida Ketrin O'Flaherti nomi ostida tug'ilgan. Onasining oilasi frantsuz bo'lganligi sababli u ham frantsuz, ham ingliz tilida gaplashadi. Bu uning badiiy adabiyotida ko'rinadi, chunki ko'plab qahramonlari ikki tilda yaxshi so'zlashadi. Shopin o'z oilasidagi ayollarga juda yaqin edi va Sent-Luisdagi katolik maktabida umrbod do'stlar orttirdi va bu uning ijodida ham namoyon bo'ladi, chunki uning romanlari qahramonlari kuchli, mustaqil shaxslardir. Ammo uning hayotida bir yil ichida turli fojialar yuz berdi - otasi baxtsiz hodisada vafot etdi, buvisi vafot etdi, o'gay ukasi esa fuqarolar urushida vafot etdi. Shunga qaramay, Shopin jonli, go'zal, musiqaga mehrli va ajoyib hazil tuyg'usiga ega bo'lgan yosh ayolga aylandi. Yigirma yoshida u Kreol Oskar Shopinga turmushga chiqdi. Kreol - bu Yangi Orleanning asl mustamlakachilaridan kelib chiqqan odam



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th April, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

va bu yuqori maqom beradi. Er-xotin butun Yevropa bo'ylab sayohat qilib, Luiziana shtatining Nyu-Orlean shahrida yashashga qaytishdi.¹

Muallifning bazi hikoyalarini qisqacha tarjima shaklini o'rganish mobaynida quyidagi xulosalarga kelindi. Masalan: "O'kinch" hikoyasida:

"Mamzele Aureliya basavlatdan kelgan, yonoqlari qip-qizil, sochlari endi-endi oqara boshlagan, ko'zlari atrofga hammavaqt sinchkovlik bilan boqadigan o'rta yoshlardagi erkakshoda bir ayol edi. U odatda, boshiga ferma erkaklari kiyadigan shlyapa kiyib yurar, sovuq kunlari egniga uniqib ketgan moviy yomg'irpo'sh bilan oyoqlariga zil-zambil kirza etiklarini ilib olardi."²

Yuqorida muallifning bo'yoqdor badiiy obrazni tavsir qilish mahorati va yana o'z uslubiy-g'oyaviy xarakteriga xos ifoda kuzatiladi.

"....Mamzele Aureliya umri bino bo'lib, turmushga chiqish borasida sira bosh qotirib ko'rmagan edi. Bu ayol butun hayoti mobaynida hatto sevib ham qolmagandi. Bir paytlar, yigirma yoshlik avji durkun chog'larida uning ham qo'lini so'rab kelishgan, ammo lekin Aureliya o'sha zahotiy oq bu taklifni keskin rad etgandi, shunday bo'lsa-da, mana hozir yoshi ellikka yaqinlashib qolgan bo'lsa-da, Mamzele Aureliya bir o'zi yolg'iz yashab kelayotganidan zig'ircha ham afsuslanmas edi." Profeminist muallifning ushbu jumalarni yozishidan maqsad nima ekanligi barcha hozirgi zamon o'quvchilari uchun ham soda va tushunarli jihat bo'lsa kerak. Ha u hamon ayollarning jamiyatdagi pozitsion xorligi va tabaqalashuvning gender tenglik qonniyatlariga zid bo'lgan muammolariga qarshi kurashda o'z hikoyalaridagi ayol obrazi ifodasi orqali kurashar edi.

"....Peshonani qarangki, bu g'aroyib ayol shunday keng-katta olamda yoppa-yolg'iz yashab kelayotgandi, albatta, Mamzele Aureliyaning sodiq iti Ponto va ekinzorlarida mehnat qiladigan negrlaru bir-ikki dona sigir, bir juft xachir, turli-tuman darrandayu parrandalar hamda ayolning qo'shotar miltig'ini (bu qurolni u jo'jalariga xavf soluvchi qirg'iylar uchun ishlatar edi) hisobga olmaganda, Aureliya butunlay so'qqabosh edi, balkim shu yolg'izligi sababdanmi ayol Xudoga qattiq bog'lanib qolgandi, tunu kun ibodatini hech kanda qilmasdi." Bu jumlar tahlilidan bazi falsafiy g'oyalar ham muallifning ifoda uslubida faol ishlatilishiga guvoh bo'lish

¹ Zarina TURSUNOVA "Keyt Shopinning feministik qarashlari" O'zbekiston milliy universiteti xabarlari, 2022 [1/10/1] ISSN 2181-7324 278-b

² Ingliz tilidan Qandilat Yusupova tarjimasi <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/jahon-nasri-onlayn-antologiyasi/keyt-shopen-1850-1904-aqsh/keyt-shopen-o-kinch-hikoya>



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th April, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

mumkin. Misol tariqasida Sharq badiiy-falsafiy ijodkorligida Tasavvuf allomalarining yolg'izlik va o'zlikni anglash borasidagi ilohiy qoidalarining keyinchalik G'arb uyg'onish davri adabiyotida xususan feministik g'oya targ'ibotchilari ijodiy kontekstida aks etganligini kuzatish mumkin.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni ayta olamizki, Keyt Shopin mahoratli ijodkor va go'zal falsafiy tafakkur sohibasi sifatida XIX asr adabiy an' analar kontekstida o'z uslubi bilan joy olgan. Uning hikoya janrida yozilgan nasriy namunalaridan aynan biz yuqorida tahlil qilib o'tgan "O'kinch" hikoyasi alohida tahsinga sazovor bo'lib, boy badiiy jilosi va uslubiy mukammalligi, go'oyaviy xarakteri bilan tanqid va aktivistik fikrlarni ask etira olishi bilan ajralib turadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Negin Karami, Esmaeil Zohdi. Kate Chopin. "The Story of an Hour: a feminist interpretation". Research journal of English language and literature (rjelal) a peer reviewed (refereed) international journal <http://www.rjelal.com>. Vol.3.3.2015 (JulySep)
2. Razzoqov H., Mirzaev T., Sobirov O., Imomov K. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. –T.: O'qituvchi, 2010. 320 b.
3. Alimova Nozima, & Akhmadov Sarvar. (2021). Improving technologies of individualization of education in teaching english to students of nophylological direction. Euro-Asia Conferences, 8-10. Retrieved from <http://papers.euroasiaconference.com/index.php/eac/article/view/517>
4. www.ziyonet.uz
5. Ziyouz.com kutubxonasi

